Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muhammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
<i>Raximov Xasan Shukurjonovich</i>	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
<i>Kurolov Maksud Obitovich</i>	
TALIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
<i>Esanova Shohida</i>	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
<i>Хамзина Динара Рашатовна</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
<i>Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich</i>	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
<i>Masharipova Sevara Bekturdi qizi</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	1487
<i>Marimova Indira Rasul qizi</i>	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELII.....	1492
<i>Murodov Orif Jumayevich</i>	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
<i>Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna</i>	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
<i>Киличева Ф.Б.</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI VAHOLASH	1507
<i>Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li</i>	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
<i>Маденова Эльмира Нзаматдиновна</i>	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
<i>Мансуров Обид Зайнидинович</i>	
РЕКЛАМА XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
<i>Xamrakulov Azamat Baxritdinovich</i>	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
<i>Jalilov Jamshid G'anjionovich</i>	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
<i>To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
<i>Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li</i>	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
<i>Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna</i>	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i>	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI.....	1554
<i>Xashimova Salima Nigmatullayevna</i>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	



SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHLTLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
DYUZDO SPORTIDA JAROHATLAR PROFILAKTIKASI VA TIBBIY TIKLANISH USULLARINING SAMARADORLIGI.....	1699
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR.....	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўгли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA HORIJY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI.....	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI.....	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQRADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	



PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI

Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna

Namangan davlat texnika universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, PhD

Email: ergasevafotima77@gmail.com

ORCID: 0009-0005-1867-1181

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy biznes amaliyotida PR-bo'limini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Tashkilot imidjini shakllantirish va jamoatchilik bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yishda PR-bo'limining o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda PR-bo'limi faoliyatining asosiy yo'nalishlari – maqsadli auditoriya bilan tizimli kommunikatsiya o'rnatish, salbiy axborot oqimlarini boshqarish, ishonchni tiklash va korporativ qadriyatlarni targ'ib qilish jarayonlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, bo'lim faoliyatida strategik yondashuv, loyiha boshqaruvi va raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish samaradorligi yoritilgan. Maqolada mavjud muammolar — kadrlar malakasining yetarli emasligi, resurslar cheklanganligi hamda axborot muhitining tez o'zgarishi sharoitida PR-faoliyatni samarali tashkil etish masalalari ham o'rganilgan. Yakunda PR-bo'limini takomillashtirish, innovatsion kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish va jamoatchilik ishonchini mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: PR-bo'limi, strategik kommunikatsiya, ijobiy imidj, salbiy ta'sirni minimallashtirish, jamoatchilik bilan aloqalar, ishonchni tiklash, maqsadli auditoriya, korporativ qadriyatlar, raqamli kommunikatsiya, brend boshqaruvi, loyiha menejmenti, axborot siyosati.

Abstract. This article provides a theoretical and practical analysis of establishing a PR department in modern business organizations. The role of the PR department in shaping a positive corporate image and maintaining effective communication with the public is emphasized. The study explores the key areas of PR activity, including systematic communication with the target audience, managing negative information flows, restoring trust, and promoting corporate values. Furthermore, the effectiveness of strategic approaches, project management, and the use of digital communication tools is examined. The article identifies major challenges, such as insufficient staff qualifications, limited resources, and the rapidly changing information environment. In conclusion, practical recommendations are proposed to improve the efficiency of the PR department, introduce innovative communication technologies, and strengthen public trust.

Key words: PR department, strategic communication, positive image, minimizing negative impact, public relations, trust restoration, target audience, corporate values, digital communication, brand management, project management, information policy.

Аннотация. В данной статье проведён теоретико-практический анализ организации деятельности PR-отдела в современном бизнесе. Отмечено, что роль PR-структуры в формировании положительного имиджа организации и построении эффективных коммуникаций с общественностью является ключевой. В исследовании подробно рассматриваются основные направления деятельности PR-отдела — установление системных коммуникаций с целевой аудиторией, управление негативными информационными потоками, восстановление доверия и продвижение корпоративных ценностей. Также анализируется эффективность применения стратегического подхода, проектного управления и цифровых коммуникационных инструментов в деятельности отдела. В статье выявлены существующие проблемы — недостаточная квалификация кадров, ограниченность ресурсов и стремительная трансформация информационной среды. В заключение предложены практические рекомендации по совершенствованию работы PR-отдела, внедрению инновационных коммуникационных технологий и укреплению общественного доверия.

Ключевые слова: PR-отдел, стратегические коммуникации, положительный имидж, минимизация негативного воздействия, связи с общественностью, восстановление доверия, целевая аудитория, корпоративные ценности, цифровые коммуникации, бренд-менеджмент, проектное управление, информационная политика.



KIRISH

Zamonaviy biznes amaliyotida PR (Public Relations) bo'limini tashkil etish korxonalar boshqaruv tizimining ajralmas strategik elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatning kuchayishi, axborot oqimlarining keskin ortishi hamda iste'molchilarning xulq-atvori va qadriyatlaridagi o'zgarishlar kompaniyalar oldiga nafaqat mahsulot yoki xizmat sifatini oshirish, balki korxonaning ijtimoiy obro'sini shakllantirish, saqlash va mustahkamlash kabi murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Shu boisdan, PR-bo'limi tashkilotning ichki va tashqi kommunikatsiyalarini muvofiqlashtiruvchi, ijtimoiy kapitalini oshiruvchi va korporativ qadriyatlarni jamoatchilik ongida mustahkamlovchi muhim boshqaruv mexanizmiga aylanmoqda.

Bugungi globallashtirish davrida axborot maydoni nihoyatda tezkor, dinamik va raqamlashtirilgan tus olgan bir sharoitda korxonalar obro'sini boshqarish strategik resurs sifatida qaralmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda axborotlarning bir zumda tarqalishi, ijtimoiy fikrlarning keskin o'zgaruvchanligi va raqamli auditoriya talablarining ortib borishi natijasida professional PR-bo'limining mavjudligi tashkilot muvaffaqiyatining hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, PR-bo'limi nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki kompaniya brendi, imidji va identifikatsiyasini shakllantiruvchi strategik kommunikatsiya platformasi sifatida namoyon bo'ladi.

PR-bo'limining dolzarbligi bir qator omillar bilan izohlanadi. Avvalo, u korxonalar va uning manfaatdor tomonlari — maqsadli auditoriya, mijozlar, hamkorlar, investorlar hamda ommaviy axborot vositalari o'rtasida o'zaro ishonchli munosabatlarni o'rnatadi va saqlaydi. Ikkinchidan, inqirozli vaziyatlarda PR-bo'limi kompaniya obro'siga salbiy ta'sirni minimallashtirish, ishonchni qayta tiklash va kommunikatsion barqarorlikni ta'minlash orqali risklarni boshqaradi. Uchinchidan, u marketing va biznes strategiyalarini qo'llab-quvvatlab, korxonaning iqtisodiy barqarorligiga, sarmoyadorlar ishonchini mustahkamlashga va raqobatbardoshlikni oshirishga hissa qo'shadi.

PR-bo'limining faoliyati korxonaning ichki muhitida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki PR tizimi xodimlarning korporativ qadriyatlarga sodiqligini oshirish, jamoaviy ruhni mustahkamlash va mehnat unumdorligini rag'batlantirish orqali korxonaning umumiy natijadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali PR-bo'limi kompaniya haqida axborotni keng auditoriyaga tezkor va samarali yetkazadi, bu esa korxonaning axborot siyosatini zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

PR-bo'limining faoliyatini samarali tashkil etish zamonaviy biznesda muvaffaqiyatga erishishning muhim sharti hisoblanadi. U kompaniyaning ijobiy imidjini shakllantirish, obro'-e'tiborini boshqarish, manfaatdor tomonlar bilan barqaror aloqalarni o'rnatish va strategik maqsadlarga erishishda markaziy rol o'ynaydi. Shu boisdan, PR-bo'limini tashkil etish nafaqat tashkiliy zarurat, balki korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik investitsiya sifatida baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Faoliyat tushunchasi ijtimoiy falsafada insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini ifodalovchi asosiy kategoriyalardan biri sifatida qaraladi. U insonning tashqi dunyoga maqsadga yo'naltirilgan, ongli va ijodiy ta'siri natijasida ro'y beradigan jarayon bo'lib, insoniyat taraqqiyotining, jamiyat mavjudligi va rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra, maqsad, vosita, jarayon va natijani o'z ichiga olgan yaxlit tizimdir [2]. Mazkur tizimning markazida insonning ehtiyojlari va manfaatlari yotadi, chunki aynan ular orqali faoliyatning yo'nalishi, mazmuni va natijaviyligi belgilanadi.

PR (Public Relations — jamoatchilik bilan aloqalar) faoliyati ham ana shu umumiy falsafiy asosning amaliy ko'rinishidir. U axborot makonida faol ishtirok etishning, uni ongli ravishda boshqarish va qayta shakllantirishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. PR faoliyatining mazmuni axborot oqimlarini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ijtimoiy idrokni shakllantirish va jamoatchilik fikriga ongli tarzda ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Shu boisdan, PR nafaqat kommunikatsion jarayon, balki ijtimoiy ong va madaniyatni boshqarish tizimining muhim elementi sifatida talqin etiladi.

S.I. Ojegov ta'riflaganidek, "maqsad — bu intilish obyekti, ya'ni mavjudlikka aylanishi orzu qilinadigan va unga erishish uchun ongli harakatlar yo'naltiriladigan holatdir" [5]. Ushbu ta'rif PR faoliyatining mazmuni bilan hamohang bo'lib, jamoatchilik bilan aloqalar tizimida ham barcha kommunikatsion harakatlar aniq maqsadlarga xizmat qiladi: jamoatchilik fikrini shakllantirish, kompaniya yoki shaxs obro'sini mustahkamlash, ijtimoiy ishonchni tiklash va manfaatdor tomonlar bilan barqaror o'zaro munosabatlarni ta'minlash.

E.A. Galumov [4], A.N. Chumikov va M.P. Bocharov [7], I.L. Vikentyev [3] kabi olimlarning tadqiqotlari PR faoliyatining maqsadli yo'nalishini yanada chuqurroq yoritadi. Ularning fikricha, jamoatchilik bilan aloqalar tizimida asosiy maqsad — idrokni boshqarishdir. Ya'ni, PR inson ongida mavjud bo'lgan obyekt (korxonalar, mahsulot, loyiha, rahbar shaxsi yoki butun brend) haqidagi tasavvurlarni o'zgartirish, yangilash yoki mustahkamlashga



qaratilgan kommunikatsion harakatlar majmuasidir. Chumikov va Bocharovning ta'kidlashicha, "PR — bu ongli ravishda tashkil etilgan kommunikatsiya yordamida idrokni boshqarish san'atidir" [7]. Bu yondashuv PRni reklama yoki marketingdan farqlovchi asosiy belgi sifatida namoyon bo'ladi, chunki u inson ongiga bevosita psixologik va sotsiologik ta'sir mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

PR faoliyatining vazifalari va funktsiyalarini tahlil etishda ilmiy manbalarda ularning chegaralarini aniq belgilash masalasi ham muhim nazariy muammo sifatida ko'riladi. Ko'plab manbalarda [6] "vazifa" va "funktsiya" tushunchalari o'zaro chalkash holatda qo'llaniladi. Biroq, metodologik nuqtai nazardan bu ikki atama farqlanadi: vazifa — maqsadga erishish yo'lida amalga oshiriladigan ketma-ket bosqichlar yoki ish elementlari majmuasi bo'lsa, funktsiya — bu muayyan organ yoki tizim tomonidan bajariladigan doimiy faoliyat turi, uning ijtimoiy roli, ahamiyati va mas'uliyat doirasini ifodalaydi.

Demak, PR faoliyatining vazifalari — jamoatchilik fikrini o'rganish, axborot siyosatini ishlab chiqish, ijobiy imidj yaratish va inqirozli kommunikatsiyalarni boshqarish kabi amaliy harakatlarga qaratilgan bo'lsa, funktsiyalari — kommunikatsiyani boshqarish, sotsiopsixologik ta'sirni tashkil etish, ishonchni shakllantirish, axborot oqimini tartibga solish kabi tizimli va strategik jarayonlarni qamrab oladi.

Natijada, PR faoliyati — bu jamiyat va tashkilot o'rtasidagi kommunikatsion muvozanatni ta'minlovchi, ijtimoiy idrokni boshqaruvchi va ijobiy imidjni shakllantiruvchi tizimli faoliyat shakli bo'lib, uning muvaffaqiyati nazariy asoslarning to'g'ri qo'llanishi va amaliy strategiyaning samarali uyg'unligiga bevosita bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda PR-bo'limi faoliyatini tashkil etish jarayonini ilmiy tahlil qilishda tizimli, tarkibiy-funksional va mantiqiy yondashuvlar asos qilib olindi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida jamoatchilik bilan aloqalar nazariyasi, boshqaruv kommunikatsiyasi konsepsiyasi hamda korporativ imidj boshqaruv modellarini tahlil qilindi.

Avvalo, tizimli yondashuv PR-bo'limini korxonaning yagona boshqaruv tizimi tarkibida faoliyat yurituvchi murakkab ijtimoiy-kommunikatsion tizim sifatida o'rganishga imkon berdi. Bu yondashuv PR faoliyatining barcha tarkibiy qismlarini — maqsadlar, vazifalar, funktsiyalar, resurslar, kommunikatsiya vositalari va natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga yordam berdi.

Tarkibiy-funksional yondashuv yordamida PR-bo'limining ichki tuzilmasi, undagi rollar taqsimoti, mas'uliyat doiralari hamda bo'lim faoliyatining tashkiliy mexanizmlari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali PR-bo'limining asosiy funktsiyalari — kommunikatsiyani boshqarish, imidj yaratish, inqirozli holatlarda ishonchni tiklash, ichki va tashqi auditoriyalar bilan aloqalarni muvofiqlashtirish kabi yo'nalishlar ilmiy asosda tahlil etildi.

Tadqiqotda, shuningdek, mantiqiy tahlil va umumlashirish usullari keng qo'llanildi. Ushbu usullar orqali olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar, jumladan E.A. Galumov, A.N. Chumikov, M.P. Bocharov, I.L. Vikentyev va boshqa tadqiqotchilarning PR faoliyatiga oid konseptual yondashuvlari solishtirildi hamda ularning o'zaro umumiylik va farqli jihatlari aniqlab berildi.

Kuzatish usuli yordamida esa amaliy tajriba asosida PR-bo'limlarining faoliyati, ularning tashkiliy tuzilmasi va jamoatchilik bilan aloqalar jarayonlari o'rganildi. Ayniqsa, korxonalarda PR-bo'limining axborot siyosati, kommunikatsion strategiyasi va inqirozli vaziyatlarni boshqarish mexanizmlari empirik jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotda olingan natijalar asosida analitik-sintez yondashuvi qo'llanilib, mavjud ilmiy g'oyalar umumlashirildi va PR-bo'limining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan metodik model taklif qilindi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot metodologiyasi ilmiy-nazariy asoslar va amaliy kuzatishlar uyg'unligiga tayanadi hamda PR-bo'limi faoliyatini samarali tashkil etishning konseptual va amaliy asoslarini aniqlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tashkilotning struktura tarkibida PR-bo'limlari va matbuot xizmatlarining paydo bo'lishi, ularning faol axborot siyosatini olib borishga bo'lgan ichki ehtiyoji tufayli vujudga keladi. Matbuot xizmati tashqi muhit bilan munosabatlarni tartibga solish orqali ham tashqi sharoitlarga moslashadi, ham tashkilotdan tashqaridagi tuzilmalar bilan munosabatlarni tartibga soladi. Matbuot xizmatlarining paydo bo'lishi hamda rivojlanishi jamiyatning yanada murakkab va xilma-xil ijtimoiy axborotga bo'lgan yangi ehtiyojlarini aks ettiradi. U jamiyatning axborot tuzilmasini tashqi jarayonda kengayishi va murakkablashuvi doirasida amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyat tuzilishining murakkablashuvidan kelib chiqadi[1].

Zamonaviy axborot texnologiyalar muhitida butun hokimiyat instituti va biznes tuzilmalari maqomining o'zgarishi, uning boshqaruv organlaridan matbuot bilan o'zaro munosabatlarning yangi usullarini talab qildi. PR-xizmatlari nafaqat ma'lum bir muassasa faoliyatiga jamoatchilik qiziqishini qondiribgina qolmay, balki ushbu muassasaga ochiq manbalardan to'liq ma'lumot olish va o'z axborot siyosatini olib borishda yordam berishi kerak. Bir tomondan, davlat va biznes tuzilmalarining xabarlarini rasmiy ma'lumotlarni o'ziga xos tanlovini amalga



oshiradigan matbuot xizmatlarining filtridan o'tadi. Boshqa tomondan, matbuot xizmatining maqsadi uning xodimlari tomonidan davlat organlari rahbarlari va mansabdor shaxslar uchun tayyorlangan matbuot sharhlari, gazetalarda chop etilgan yangiliklarni nafaqat yetkazish, balki ularni talqin qilishdan ham iboratdir.

Turli tashkilotlarda PR-bo'limining vazifalari har xil bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, ham davlat, ham tijorat jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish bo'limlari uchun ushbu bo'limlarning barcha ishlarini to'liq qamrab oladigan bir qator funktsiyalarni shakllantirish mumkin.

1-jadval. Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish bo'limi funktsiyalari

№	Funktsiya	Tavsifi
1	Xodimlar bilan korxonada ichidagi aloqalarni o'rnatish, shu jumladan korporativ uchrashuvlarni tashkil etish.	Bu muloqot qobiliyatlarini mavjudligini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasining nozik tomonlariga ega bo'lishni anglatadi. Ushbu muammoni yanada samarali hal qilish uchun PR-bo'limi xodimlari korxonaning boshqa bo'linmalari bilan PR xizmatining muntazam aloqa jadvalini tuzishlari kerak.
2	Korxonaga tegishli masalalarni muhokama qilish.	PR-bo'limi axborot oqimlari markazida bo'lishi, uning xodimlari zamonaviy axborot texnologiyalarini puxta egallashi kerak. Ushbu maqsadga erishish uchun PR-bo'limi korxonadagi so'nggi o'zgarishlardan xabardor bo'lishi, shuningdek, mavjud va paydo bo'lgan muammolarni hal qilishga qaratilgan takliflarga ega bo'lishi kerak.
3	OAV bilan aloqalarni o'rnatish, qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish.	Bunga markaziy va mahalliy matbuotni monitoring qilish, matbuot uchun press-relizlar va boshqa materiallar tayyorlash, matbuot anjumanlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish kiradi. Bu ishbilarmon hamkorlikni rivojlantirishdan tashqari, korxonaning PR-bo'limi vakillari hamda mintaqaviy va markaziy OAV vakillari o'rtasidagi shaxsiy aloqalarni kengaytirishni ham o'z ichiga oladi.
4	Viloyat va tuman(mahalliy) hokimiyat organlari bilan munosabatlarni takomillashtirish hamda muvofiqlashtirish.	Bu nafaqat amaldagi, balki muxolif, shuningdek istiqbolli siyosatchilar bilan ham ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish hamda rivojlantirishni nazarda tutadi. Qanday bo'lmasin, o'z korxonangiz vakillarini hokimiyat strukturalari bilan integratsiyalashuviga intilishingiz kerak.
5	Investorlar va kreditorlar bilan munosabatlar.	Bu yerda PR bo'limining asosiy vazifasi korxonaning investorlar va kreditorlar oldidagi joriy majburiyatlarining bajarilishi to'g'risida har tomonlama ma'lumot berishdir.
6	Xaridorlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, yangilarini jalb qilish.	Bu kam sotilayotgan tovarlarni samarali rag'batlantirishni va ishlab chiqarilgan mahsulotlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishni ta'minlaydi.
7	Korxonaning jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlash.	Korxonaning yillik hisobotlari, broshyuralari, yetakchi menejerlarning ma'ruza nutqlari va boshqa shu singari bosma materiallarini aholining keng qatlamlariga ommaviy ravishda tarqatish orqali, uning jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlash.
8	Maxsus guruhlar bilan munosabatlarni rivojlantirish.	Bularga yetkazib beruvchilar, talabalar, notijorat firmalar, raqobatchilar kiradi. Ishonchli muhitni yaratish har doim biznesdagi ko'plab tadbirlarini soddalashtirishga va kam xarajatlar qilishga yordam beradi.
9	Korporativ uslubni takomillashtirish.	fotoko'rgazmalar tashkil etish, radio va televideniya reklama roliklarini o'tkazish bo'yicha ishlar olib borish.
10	Maxsus tadbirlarni qo'llab-quvvatlash.	Bularga boshqaruv safarlari, korxonada bayramlari, ko'rgazmalar, tantanali kechki ovqatlar, pikniklar, filiallar ochilishi va boshqalar kiradi.
11	Boshqaruv maslahati	PR bo'limining tuzilmasini shakllantirishda uning asosiy sektorlarini aniqlash - bularga OAV bilan aloqalar sektori, matbuot markazlari, davlat tuzilmalari bilan aloqalar sektori, jamoat tashkilotlari bilan aloqalar sektori, ko'rgazma va yarmarkalar sektori, maxsus tadbirlar sektori, axborot-tahliliy markazlar kiradi.

PR-bo'limi ishini rejalashtirish va dasturlash bir qator segmentlarni majburiy amalga oshirishni o'z ichiga oladi: ichki va tashqi darajadagi jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha tadqiqot segmenti (axborot to'plashning sifat va miqdoriy usullari, maqsadli OAV va maqsadli auditoriyaning ma'lumotlar bazalarini tuzish, moderator sifatida ishlash, fokus-guruhlarni tashkil qilish, hisobotlarni tayyorlash va ularni taqdim etish); tahliliy segment (axborot, sanoat, raqobat muhiti holatini monitoring qilish, tematik press-klipping, matbuot hujjatlari to'plamini tuzish, tashkilotning faoliyati va pozitsiyasini tizimli tahlil qilish); amaliy segment (korporativ PR-rejalari va dasturlarini shakllantirish, korporativ PR-byudjetini hisoblash) [1].



Agar korxonalar rahbariyati PR sohasida doimiy ishlarni bajarish zarurligi to'g'risida xulosaga kelgan bo'lsa, unda bunday ishni o'zining jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish bo'limi (bo'linmasi) amalga oshirishi kerak. Ushbu bo'limni tashkil etish uchta asosiy yondashuvga asoslaniladi.

1. Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish bo'limi korxonalar tuzilmasidagi asosiy elementlardan biri sifatida tasavvur qilinadi. U jamoatchilik bilan aloqalar sohasidagi funktsiyalarni to'liq bajaradi va tashkilot rahbariyati tomonidan korxonaning samarali boshqaruvini va uning mahsulotlarini ichki hamda tashqi bozorda targ'ib qilishni ta'minlaydigan mexanizmlardan biri sifatida qaraladi.

2. PR-bo'limi OAV bilan o'zaro hamkorlikning amaliy vazifalarini bajarish uchun tashkil etiladi va matbuot xizmati – korxonalar faoliyati to'g'risidagi axborotni tarqatish bo'yicha oraliq bo'g'in vazifasini bajaradi.

3. Korxonaning jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish bo'limi ishini uning tarkibiga kirmaydigan va jamoatchilik bilan aloqalar sohasida ixtisoslashtirilgan professional firma tomonidan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, dastlabki ikkita yondashuv doimiy ravishda faoliyat yuritadigan o'z jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish bo'limiga ega bo'lishni o'z ichiga oladi. Uchinchi yondashuvda esa davriy xarakterga ega bo'lgan tashqi PR-agentligi xizmatlarini jalb qilishga asoslangan. PR-bo'limini tashkil etishning ushbu variantlarining barchasi u yoki bu darajada jamoatchilik bilan aloqalar amaliyotida namoyon bo'ladi. Biroq, bevosita ulardan birini tanlash to'g'ridan-to'g'ri jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish xizmati (bo'limi) funktsiyalarining hajmi va xususiyatiga, uning shtatlar birligi va byudjetiga, shuningdek, albatta, uning ishining samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqotlarga tayangan holda shuni aytishimiz mumkin, PR-bo'limi faoliyatini tashkil etishda bir qator muammolar mavjud bo'lib ularga - samaradorlikni baholash, moliyalashtirish, boshqa bo'limlar bilan muvofiqlashtirish, shuningdek boshqa bo'limlar xodimlarining PR faoliyatini idrok etishdagi qiyinchiliklarni sanab o'tishimiz mumkin. PRning ahamiyatini yetarli darajada tushunmaslik, shuningdek, korxonani barqaror holatga kelguncha uzluksiz ta'minlab turuvchi axborot oqimlarining yo'qligi PR mutaxassislarining, shuningdek PR-bo'limi ishini sezilarli darajada murakkablashtirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

PR-bo'limi odatda tashkilotning aloqa maqsadlariga erishish uchun strategiyalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Bu maqsadli auditoriyani aniqlash, eng samarali aloqa kanallarini tanlash va shu auditoriyaning qiziqishlari va ehtiyojlariga javob beradigan xabarlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

PR-bo'limi faoliyatini samarali tashkil etish uchun quyidagilar tavsiya etamiz: maqsad va vazifalarni aniq belgilash (umumiy biznes maqsadlari bilan bog'liq bo'lishi kerak bo'lgan PR faoliyatining maqsadlarini aniq belgilashdan boshlash), mavjud vaziyatni tahlil qilish (korxonaning hozirgi holati, uning imidji, raqobat muhiti va maqsadli auditoriyasini tahlil qilish, bu kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga, imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlashga yordam beradi), harakatlar rejasini va inqirozga qarshi rejani o'z ichiga olgan PR strategiyasini ishlab chiqish (tahlil asosida quyidagilarni o'z ichiga olgan keng qamrovli PR strategiyasini ishlab chiqish: maqsadli auditoriyani aniqlash, PR vositalarini tanlash, kontent rejasini ishlab chiqish, byudjetlashtirish, inqirozga qarshi reja ishlab chiqish, sifat nazorati tizimini joriy etish, korxonaning biznes maqsadlari bilan bog'liq PR bo'limi uchun aniq KPI (asosiy ishlash ko'rsatkichlari)ni belgilash), PR strategiyasini muntazam tekshirish, samaradorlikni baholash, shuningdek bo'lim ishining sifatini nazorat qilish tizimini joriy etish.

Umuman olganda, PR-bo'limi har qanday tashkilotning muhim elementi bo'lib, u ijobiy imidjni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash, obro'ni mustahkamlash va biznes maqsadlariga erishish uchun javobgardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dedajanov B.N., Ergasheva F.I. "PR-menejment". Darslik. –Namangan.: «Usmon Nosir media» nashriyoti, 2023. – 665 b.
2. Большая энциклопедия Кирилла и Мефодия [Электронный ресурс]. - М., 2000. - 1 электрон. опт. диск (CD-ROM).
3. Викентьев И.Л. Приемы рекламы и публик рилейшнз. Программы-консультанты / И.Л. Викентьев. – СПб.: Бизнес-пресса, 2004. – 324 с.
4. Галумов Э.А. Основы PR / Э.А. Галумов. – М.: Летопись XXI, 2004. – 244 с
5. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка / С.И. Ожегов, Н.Ю. Шведова. М.: ООО «ИТИ Технологии», 2003. – 834 с.
6. Организация PR-отдела на предприятии на примере компании Mr.Doors. https://superinf.ru/view_helpstud.php?id=449
7. Чумиков А. Н. Связи с общественностью: теория и практика: учебное пособие / А. Н. Чумиков, М. П. Бочаров. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Дело, 2006. - 552 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
